

Yoshlarga e'tibor, kelajakka e'tibor!



"Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti" unitar korxonasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni ijrosi yuzasidan institut rahbariyati bilan 30 yoshgacha bo'lgan yosh mutaxassislar muloqoti tashkil etildi.

Muloqot chog'ida O'zbekistonning rivojlanishi yo'lida hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosat, yosh avlodni barkamol, o'z kasblarini egalari bo'lib tarbiya topishlarida olib borilayotgan tadbirlar xususida to'xtalib o'tdi.



Ochiq muloqot so'ngida yoshlar tomonidan mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi, yurt tinchligi ko'zlashini bildirilib biz barchamiz "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan yagona maqsad, birlashib ma'suliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda fidokorona mehnat qilib orttirgan bilim va ko'nikmalarimizni yurt ravnaqi yo'lida o'z hissasini qo'shish har bir O'zbekiston fuqarosining hayotidagi oliy maqsadi bo'lishi kerak degan - fikrlar yangradi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Matbuot xizmati